



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 7 2023 YIL 19 IYUN

## TIBBIYOT SOHASI RIVOJIGA MUNOSIB HISSA QO'SHAYOTGAN OLIM



**Inson umrini oqar daryoga qiyoslashadi. Bu foniy dunyoda har bir inson uchun lozim bo'lgan, ammo har kimga ham nasib etavermaydigan ikki mo'tabar ne'mat bor. Birinchisi kamtarlik va mehnatsevarlik bo'lsa, ikkinchisi esa xalqning ishonchi va e'tirofiga erishish baxtidir.**

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston va Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi, tibbiyot fanlari doktori, professor, Shavkat Ibragimovich Karimov o'zi suygan kasbiga qanchalik mas'uliyat bilan yondashsa, farzandlari va shogirdlari tarbiyasiga xuddi shunday javobgarlik bilan qarab keladi.

Shavkat Karimov 1943 yili Toshkent shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Uning bolalik yillari azim Toshkentning "Oqilon" mahallasida kechdi. U bolalik yillarini estar ekan u gohi-gohida chuqur o'yga cho'mib, o'sha davrdagi turmushning qiyinchiliklari-yu, odamlar o'rtasidagi mehr-oqibatni takror-takror yodga oladi. Shavkat Ibragimovich o'rta maktabni a'lo

baholarga tamomlagach, hech ikkilanmay Toshkent Davlat tibbiyot institutining davolash fakultetiga o'qishga kiradi. Shifokorlik kasbiga bo'lgan qiziqishi uni institutda tirishqoqlik bilan ta'lim olishiga turtki bo'ldi.

U 1966 yili Toshkent Davlat tibbiyot institutini tamomlaganidan so'ng o'z ish faoliyatini Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahar markaziy shifoxonasida shifokor-jarroh lavozimidan boshlaydi. Keyinchalik u jarrohlik bo'limi mudiri lavozimida ish olib borib, aynan shu yerda shifokorlik kasbiga mehr qo'ydi, tajribaga ega bo'ldi, kasbdoshlari va aholi hurmatiga sazovor bo'ldi.

(Davomi 4-betda)

**Yangi O'zbekiston – bu zamonaviy dunyoda butunlay yangicha qadamlar qo'yayotgan, umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillarga mutanosib tarzda erkin jamiyat qurayotgan, yuksak marralarni ko'zlayotgan davlat.**

## YANGI O'ZBEKISTONDA SAYLOV YANGILANGAN SAYLOV QONUNCHILIGI ASOSIDA O'TKAZILADI

Hademay yurtimizda juda muhim siyosiy jarayon – Prezident saylovi bo'lib o'tadi. Mazkur siyosiy tadbir ham yangilangan saylov qonunchiligi asosida o'tkaziladi.

Zero, milliy saylov qonunchiligi xalqaro umume'tirof etilgan tamoyillar, xalqimizning fikrlari, takliflari asosida takomillashtirildi hamda mamlakatdagi demokratik islohotlar bilan uyg'unlashtirildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning XXII bobida saylov tizimiga oid asosiy qoidalar mustahkamlandi. Xususan, Bosh qomusimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Bundan ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o'tkazish hollari mustasno.

Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

(Davomi 2-betda)

Hikmat



*Ilmning avvali sukut, so'ng eshitish, so'ng yod olish,  
so'ng amal qilish, so'ng uni tarqatish.*



Hikmat

## YANGI O'ZBEKISTONDA SAYLOV YANGILANGAN SAYLOV QONUNCHILIGI ASOSIDA O'TKAZILADI

(Boshi 1-betda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlashga haqli.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlikdan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qiladi, o'z faoliyatini

doimiy asosda amalga oshiradi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan komissiya a'zolari orasidan besh yillik muddatga komissiya majlisida saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasining raisi etib saylanishi mumkin emas.

Konstitutsiyaning takomillashtirilishi asosida saylov jarayonlari bilan bog'liq bunday normalar mustahkamlanishi saylovning qonuniylik, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida o'tishida muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda Saylov kodeksiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tsak.

Prezidentlikka nomzod o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi mumkin.



Qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ilgari sudlangan fuqarolar, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydi.

Siyosiy partiya saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan taqdiridagina O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, saylovga oid yangilangan qonunchilik fuqarolarning saylov huquqi kafolatlarini hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlashga xizmat qiladi.

**Zarina ISROILOVA,**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
O'za

### XALQARO HAMKORLIK

#### Toshkent tibbiyot akademiyasining Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

TTA rektori, professor A.Shadmanovning Birinchi O'zbekiston-Germaniya tibbiyot forumidagi ishtiroki doirasida Toshkent tibbiyot akademiyasi va GIZ o'rtasida hamkorlik Memorandumi imzolandi.

Forum doirasida imzolangan memorandum Toshkent tibbiyot akademiyasi va GIZ o'rtasidagi hamkorlikni yangi yuqori sifat bosqichga olib chiqadi.

Memorandum tibbiyot xodimlarini tayyorlashning ilg'or Germaniya standartlariga muvofiq, ta'lim dasturlarini moslashtirish bo'yicha yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, akademiyaning o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashadi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi xalqaro hamkorligini kengaytirish ishlari davom etmoqda.

#### Germaniyaning yetakchi sog'liqni saqlash tashkilotchilari Toshkent tibbiyot akademiyasining faxriy professori unvoniga sazovor bo'ldi

Birinchi O'zbekiston-Germaniya tibbiyot forumi doirasida Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor A.Shadmanov Germaniyada sog'liqni saqlashning yetakchi tashkilotchilariga Faxriy professor unvonini topshirdi.

Sog'liqni saqlash, tibbiy ta'lim hamda ilm-fan rivojiga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun Germaniya Xalqaro hamkorlik tashkilotining (GIZ) sog'liqni saqlash loyihalari rahbari Korneliya Bekker va Germaniyaning OPASCA innovatsion tibbiyot kompaniyasi rahbari Aleksey Sverdlov Toshkent tibbiyot akademiyasining Faxriy professor unvoniga sazovor bo'ldilar.

Hurmatli xorijlik professorlarimizni ushbu faxriy unvon bilan tabriklaymiz!



# DAVLATIMIZ RAHBARI QARORLARIDA XALQ TABOBATI, ZAMONAVIY MEDITSINADA UMRNI UZAYTIRISH MUAMMOLARI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturlarida xalq, qishloq xo'jaligining barcha sohalari kabi sog'liqni saqlash tizimi va meditsinasini isloh qilish borasida ko'plab yangiliklar bayon etilib borilmoqda.**

Ularning aksariyati respublikamiz fuqarolarini imkon qadar sog'lom turmush tarziga jalb qilish, islohot va yangiliklarni amaliyotda qo'llash orqali turmush sifatini yaxshilash, nogironlik va surunkali kasalliklarni kamaytirish va umr uzunligini uzaytirishga qaratilgan, barchasi ilmiy jihatdan asoslangan.

Umrni uzaytirish, yoshlik va go'zallikni imkon qadar uzoq muddat saqlab qolish muammolari Odam alayhissalom zamonasidan qolgan va ro'zi mahshargacha dolzarb bo'lib qolaveradi. Yosh o'tishi bilan insonning qariy boshlashi tabiiy biologik jarayondir. Insondagi yosh bilan bog'liq o'zgarishlar jismoniy faollikni cheklaydi, tashqi ko'rinishda qarilik belgilari namoyon bo'la boradi va ba'zi imkoniyatlarning cheklanishiga sabab bo'ladi. Keksalik inson yoshining so'nggi bosqichi bo'lib, qariy boshlash jarayoni bilan kechadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda insonning keksalik davri 75 yoshdan so'ng boshlanishi qayd etilgan bo'lsa-da, shayx ur rais Ibn Sino keksalikning chegarasidan 59 yoshdan deb baholagan.

Insonning qarish surati va individual xosligi, har bitta odamda nasliy omillar va atrof-muhitning ta'siri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlatimiz rahbarining dasturlaridan alohida o'rin olgan. Bu jarayon shartli ravishda, o'z vaqtida, ya'ni jismoniy va vaqtin oldin qariy boshlash turlariga bo'linadi. Jismoniy qarish holatida, inson eng nuroniy yoshigacha ham amaliy sog'lomligini saqlay oladi, u o'zini eplaydi tashqi yordamga ortiqcha ehtiyoj sezmaydi, atrof-muhitga bo'lgan qiziqishi va ijtimoiy faoliyatini so'ndirmaydi. Vaqtin oldin qarish jarayoni esa, keksalik belgilarining erta namoyon bo'la borishi bilan belgilanadi. Organizmning biron sabab bilan to'satdan kuchli zo'riqishi, tartibli jarayonning buzilishi, salbiy odatlar, masalan ichkilikbozlik, kashandalik kabi sabablar qarish jarayonini sezilarli tezlatadi.

Irsiy omillar ham bu jarayonda juda katta ahamiyatga ega. Ajdodlari uzoq umr ko'rgan insonlarda ham, nuroniy yoshli keksalar bo'lish imkoniyati saqlanib qoladi. Yoshning sekin-astalik bilan oldinga siljiy boshlashi natijasida, inson organizmidagi qarish jarayoni o'zining sezilarli o'zgarishlarini, a'zolar faoliyatining sustlashib borishida namoyon qiladi. Jismoniy keksayishda, yosh bilan bog'liq belgilar yurak, qon-tomir va asab tizimidagi o'zgarishlar bilan kechadi. Qariyalar va keksaya boshlagan insonlarning yurak urishi tezligi pastlashib boradi. Katta jismoniy zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan, yurak qisqarishining to'satdan tezlashib ketishi, yurak muskullarida qon aylanishining yetishmasligi natijasidagi og'ir asoratlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga chaqaloqlik, bolalik, yoshlik, o'ta yoshda qanday bo'lganidan qat'iy nazar 60 yoshdan boshlab mijoz quruqshab, so'vib boraveradi, shu boisdan ham keksalar sovuqqa chidamsiz va badanda suv o'zayib qurishish hisobiga tana vazni yengillashib terisi bujmay boradi.

Yosh bilan bog'liq o'zgarishlar asab tizimining yomontashuviga, xotiraning yaqin hodisalarga unutulganligiga, ruhiy charchoq va sababsiz xafagarchiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ayni damdagi rangdor va yorqin hodisalarga nisbatan befarqlik yuzaga chiqib, "otgan kunlarga qochish" sindromi birinchi planga o'tib oladi. Ular asosiy vaqtlarini "xotiralar mamlakatida" yashab o'tkazadilar yoki xayollarini mudom sog'liqlari bilan bog'liq muammolar, o'zlaridagi kasalliklar sababli tushkun kayfiyatlar band qilib qo'yadi. Ammo ba'zi paytlarda ularda yuqoridagi holatlarning butkul teskarisini ham ko'rish mumkin, ya'ni ular keksalik muammolarini umuman tan olmaydilar, balki o'z g'ayratlari va harakatchanliklari bilan ba'zi yoshlarga o'rnak ham bo'la oladilar. Inson organizmining qarish jarayoni va hayotining asosan ikkinchi yarmida avj olishi mumkin bo'lgan surunkali xastaliklar orasida yaqin bog'liqliklar ham bor. Keksalar yoshli insonlar orasida keng tarqalgan ateroskleroz xastaligi, yurakda qon ta'minotining yetishmasligi, yurak muskullarining siqilishi yoki infarkt-miokardi, bosh miyaning qon bilan qiyin ta'minlanishi va yana boshqa a'zolarining faoliyati buzilishi bilan bog'liqdir. Keksalar yoshlilarda qon bosimining balandligi ham ko'p kuzatiladi va bu ham ateroskleroz xastaligining darakchisiga o'xshaydi. Keksalarda yana ko'p uchraydigan xastaliklar sirasiga, qandli diabet, osteoxondroz, radikulit, bog'imlar bilan bog'liq kasalliklar ham kiradi. Keksayganda paydo bo'ladigan aqliy zaiflik – Altsgeymer kasalligi 60 yoshdan o'tib har olti nafardan bittasida uchraydi. Ovqatlanishda mo'tadillikni yo'lga qo'yish va semirib ketishdan saqlanish, yuqorida sanab o'tilgan kasalliklardan har qanday yoshdagi insonlar, shu jumladan keksalarni ham bir muncha himoya qila oladi.

Keksalar yoshdagi insonlarning kimyoviy dori-darmonlar bilan davolanishida, o'ta ehtiyoqkorlik va e'tibor talab qilinadi. O'zibilarmonchilik

bilan davolanish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini unutmastlik kerak.

Keksalar insonlarning ko'pchiligi uyqu me'yori buzilganidan shikoyat qiladilar. Yosh o'tishi bilan kechki uyquga bo'lgan talab ham susayadi va 5-8 soatlik o'ta sergak uyqudan ortig'iga cho'zilmaydi. Uyqusizlik xastaligini iloji boricha kimyoviy dorilarsiz tartibga solishga harakat qilgan ma'qul. Harakatlardagi faollikni oshirish, uyqudan oldingi orombaxsh sayr, kechgi ovqatlanish uyqudan 3-4 soat oldin, achchiq choy va qahvasiz qilish, yotoqxonadagi haroratning 18-20 gradusdan oshmasligi va tushib ketmasligi, uyqu paytida umurtqa pog'onasining qulay joylashishini ta'minlovchi to'shak – bular barchasi ayniqsa keksalar yoshdagi insonlarning xayrli dam olishlariga yordam beruvchi qoidalardir. Keksalar yoshdagi insonlarda uchraydigan yana bir muammo – ichaklarning o'z vaqtida bo'shatish tartibining buzilishi bilan bog'liq. Ularda qabziyatni, ovqatlanish me'yorining buzilishi, ya'ni meva va sabzavotlar, yirik tortilgan un mahsulotlarining yetishmasligi, ovqatlanish rejimining noto'g'riligi, achchiq mahsulotlarga tobetlik holatlarini keltirib chiqaradi. Shuningdek, kamharakatlilik, suyuqlikni yetarli miqdorda ichmaslik, kimyoviy dorilar qabul qilish ham qabziyatga sabab bo'ladi.

Insonning turmush tarzi, ish faoliyati, asab tizimi holati, tashqi va ichki hodisalarga bo'lgan munosabati qarish jarayoniga yetarlilikka ta'sir o'tkaza oladi. Mehnat va dam olishni to'g'ri shakllantirish, to'g'ri ovqatlanish, faol harakat, insonlar bilan oliyjanob munosabat, organizmda ijobiy jarayonlarning bardavom bo'lishiga yordam bera oladi. Mehnat va harakat uzoq umr garovi ekanligini unutmastlik kerak. Hayotga bo'lgan muhabbatni saqlash, yillar davomida erishilgan yutuqlar, jamoada hurmatli, oilada e'tiborli bo'lish singari omillar, insonning keksa yoshida ham navqiron ko'rinishiga sabab bo'ladi.

Ertalabki yengil gimnastika mashqlarini bajarish, keksalar insonlarda katta ahamiyat kasb etadi. Har bitta organizmning o'ziga xosligiga qarab, gimnastika mashqlari sekin-asta murakkablasha boradi. Uzoq davom etadigan piyoda sayrlar juda foydali. Sayr chog'ida gavdani tik tutib, qadamlarni to'g'ri tashlab, tekis nafas olishni nazorat qilib turilsa, sayr majburiy emas, balki rohatlanib bajarilsa, bu ayni muddaodir. Toza havodagi jismoniy mehnatlar, bog' ishlari, baliq oviga chiqish ham keksalar uchun juda foydali. Issiq kunlarda, quyoshning tikka nurlari tagida uzoq vaqt qolish, zo'riqishga sabab bo'luvchi jismoniy ishlarni to'q qoringa birdaniga bajarish mumkin emas. Uzoq masofaga yugurish mashqlari faqatgina, ma'lum tayyorgarlik mashqlaridan so'nggina tavsiya qilinadi. Harakat faolligi markaziy asab tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalik chog'lardan rioya qilingan sog'lom turmush tarzi, turli xastaliklarning oldini olibgina qolmay, erta qarishni keltirib chiqaruvchi muammolardan ham asraydi. Sog'lom keksalik va uzoq umrning tamal toshi hayotning ilk bosqichlaridan boshlab qo'yiladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash juda muhimki, insonlarning yoshligi va maftunkorligini saqlashning eng ahamiyatli omillaridan biri bu – ularning qalblari go'zalligida hamdir! Yosh va go'zal ko'rinishli insonlar yaxshi niyatli, oliyjanob, toza maqsadlar sari intiluvchan, o'z hayotini boshqalar baxti uchun bag'ishlay oladigan insonlardir!

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz joizki, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning saylovoldi dasturlarida respublikamizning yetuk tib mutaxassislari, sog'liqni saqlash tizimi namoyondalarining fikrlari e'tiborga olingan holda yuqorida keltirilgan omillarning barchasi inobatga olingan. Mazkur qarorlar va tashabbuslarning aynan Prezidentimiz tomonidan olg'a surilayotganligi inson omiliga bo'lgan yuksak e'tibor namunasidir. Darhaqiqat irsiyati pokiza, sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan, o'rinsiz asabiylashmaydigan, jismoniy, aqliy va ruhiy layoqatni susaytirmaydigan kishilarda salomatlik, yoshlik va go'zallik uzoq davom etadi.

**Alijon ZOHIDIY,**  
tabobat fanlari doktori, Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi akademigi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Respublika Sog'liqni saqlash a'lochisi, Turon xalq yozuvchisi,  
Mehri NURU'ZOVA,  
Xalq Tabobati akademiyasi boshqaruv Kengashi raisi, texnika fanlari  
nomzodi





## TIBBIYOT SOHASI RIVOJIGA MUNOSIB HISSA QO‘SHAYOTGAN OLIM

(Boshi 1-betda)

Albatta, yetuk shifokor bo‘lish uchun tajribaning o‘zi yetarli emasligini tushunib yetgan Shavkat Ibragimovich o‘zini ilmiy-tadqiqot ishlarida sinab ko‘rishi, ilmiy izlanishlar orqali o‘z bilim va malakasini oshirib borishi va nafaqat yetuk mutaxassis bo‘libgina qolmay, balki olim sifatida ulug‘ ustozlari kabi shakllanishi mumkinligini anglab yetdi. Bu kabi o‘y-xayollar uni 1969 yili Toshkent Davlat tibbiyot instituti fakultet xirurgiyasi kafedrasiga olib keldi. To‘g‘rirog‘i uning ilk ustoz, akademik O‘Dripov unga bu taklifni berdi. U hech ikkilanmay bu taklifni qabul qildi va O‘Dripov rahbarligida ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlab yubordi. Fanga bo‘lgan qiziqish, o‘z ishiga sadoqati uning ilmiy-tadqiqot ishlariga turtki bo‘ldi. Olib borilgan ko‘p yillik mashaqqatli mehnat natijasi o‘laroq 1971 yilda u «Buyrak transplantatsiyasida antilimfositar globulin hamda gossipolbarbitur kislotasi yordamida immunodepressiv terapiya» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi (1971 yil 24 dekabrda MMD № 032639-sonli diplom).

Sh.Karimov 1974-1977 yillar mobaynida A.N.Bakuliyev nomidagi yurak-qon tomir xirurgiyasi instituti qon-tomir xirurgiyasi bo‘limida ilmiy xizmat safarida bo‘lib, Rossiya Meditsina Fanlari Akademiyasi akademigi A.V.Pokrovskiy rahbarligida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirdi. 1981 yili esa u «Qorin aortasi okklyuziyalarining diagnostikasi va xirurgik davosi» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ilm sohasida faol bo‘lgan Sh.Karimov 1979 yilda Toshkent Davlat tibbiyot instituti 1-klinikasi bazasida fakultet va gospital xirurgiya kafedrasini tashkil etadi. Tirishqoq va intiluvchan Sh.Karimov mazkur kafedraga 30 yildan ziyod rahbarlik qilib keldi. Ushbu davr mobaynida Shavkat Ibragimovich o‘z tarkibida yetuk olimlar, pedagoglar va mohir shifokorlarni o‘z ichiga olgan jamoani shakllantira oldi. Bundan tashqari, institutning klinik bazasi bo‘lmish klinika tarkibida qator ixtisoslashgan bo‘limlar, jumladan, qon tomir, rentgenendovaskulyar, me‘da-ichak trakti, jigar va o‘t yo‘llari, torakal, shoshilinch jarrohlik hamda SKAL bo‘limlariga asos soldi. Kafedra va klinika xodimlaridan tarkib topgan ushbu jamoani birlashtirish, ularni bir yoqadan bosh chiqarib ishlashiga, respublikamizga yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashdek muhim vazifani uddaladi. Hozirgi kunga kelib Shavkat Ibragimovich yaratgan xirurgik maktab tarbiyalanuvchilarining o‘ntab, balki yuzlab vakillari yer yuzining turli burchaklarida faoliyat yuritib kelmoqda.

Akademik Sh.Karimov juda ko‘p yangi ishlar boshida turgan va «birinchi marotaba» iborasi ko‘pincha uning nomi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglaymiz. O‘tgan asrning 70-yillariga kelib ilk bor O‘zbekistonda qon tomir xirurgiyasi rivojlana boshladi va Sh.Karimov ushbu yo‘nalishning



ilk qaldirg‘ochlari sifatida tan olinadi. U aorta hamda magistral arteriyalarda rekonstruktiv operatsiyalarni klinik amaliyotga tatbiq etishda peshqadam olimlardan hisoblanadi. 1990 yildayoq Sh.Karimov rahbarligida «Xavfli guruh bemorlarida oyoqlar og‘ir ishemiyasini intraoperatsion dilatatsiyali kichik rekonstruktiv amaliyotlar» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu ishda hozirgi kun iborasi bilan ataladigan «gibrid» amaliyotlar o‘z ifodasini topgan.

Oyoqlar kritik ishemiyasi hamda diabetik oyoqli bemorlar davolash natijalarini yaxshilashga qaratilgan juda katta ishlar amalga oshirildi. Bunda O‘zbekistonda ilk marotaba uzoq davom etuvchi arteriya ichi kateter terapiyasi qo‘llanilgan.

Ayniqsa qandli diabet yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni juda qiziq va samarali hisoblangan. Oyoq kafti pay-sinovial jamlanmasini o‘rganib, oyoqlar diabetik gangrenasida shikastlangan zona turli xil uchastkalarida proksimo-distal mikroba tarqalganlik gradiyentini baholab Sh.Karimov tomonidan har xil turdagi oyoqlar tayanch vazifasini saqlab qolishga qaratilgan jarrohlik amaliyotlari taklif qilingan.

1984 yilda ustoz rahbarligida qorin surunkali ishemiyasiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilinadi. Unga ko‘ra visseral surunkali qon aylanishining turli xil ko‘rinishlarida oshqozon va ichakning funksional-morfologik o‘zgarishlari eksperimentda tadqiq qilingan hamda nazariyotda ishbotlangan.

Akademik Sh.Karimov boshchiligidagi buyrak usti bezi genezli arterial gipertenziyaga oid bemorlarni diagnostikasi va davolashda katta ilmiy hamda amaliy izlanishlar amalga oshirildi. Buyrak usti bezi venoz tarmoqlari o‘tkir endovaskulyar okklyuziyasi va markaziy venasi elektrokoagulyatsiyasi usuli tatbiq qilingan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki Sh.Karimov O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib surunkali bosh miya qon aylanishi yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlar karotid arterial havzasida jarrohlik amaliyotlarini targ‘ib qildi va amalga oshirdi. Ushbu amaliyotlar oxirgi yillarda kundalik jarrohlik amaliyotlariga aylanib qolgan bo‘lsa-da, ko‘plab bemorlarning hayotni saqlab qolish imkonini hamda insult rivojlanishining oldini olishga yordam berdi. Uning o‘ta talabchanligi va katta mehnati tufayli ishemik insultlarni davolash natijalari sezilarli yaxshilandi. Qariyb 15 yil davomida akademik Sh.Karimov tashabbusi bilan yaqin va uzoq xorij mamlakatlari olimlari ishtirokida surunkali bosh miya qon aylanishi yetishmovchiligi bilan bemorlar diagnostikasi, xirurgik va konservativ davolashning turli xil tamoyillariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazib kelinadi.

Faxr bilan aytish kerakki Sh.Karimov tomonidan bilimdon, shijoatli, o‘z maqsadiga intiluvchan yuqori malakali mutaxassislardan iborat katta xirurgik maktab yaratildi. U va uning maktabi namoyondalari tomonidan tarqalgan yiringli peritonit, qon tomir, torakal patologiyalar muammolarining ustuvor yo‘nalishlari, qandli diabetning xirurgik jihatlariga bag‘ishlangan yechimli amaliyot turlari yaratildi va tatbiq qilindi. Mexanik sariqlik, profuz qon ketishi bilan asoratlangan portal gipertenziyaga bag‘ishlangan tadqiqotlar nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham tan olingan bo‘lib, keng qo‘llanib kelinmoqda. Bugungi kunda klinikada kam invaziv amaliyotlar faol ishlab chiqarilib, keng qo‘llanilmoqda.

(Davomi 5-betda)



## (Boshi 1-4-betlarda)

Professor Sh.Karimovning yorqin iqtidori – olim va tashkilotchiligi uning 1989-1998 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri lavozimida ishlagan yillarida namoyon bo'ldi. Endigina mustaqillikka erishgan respublikamiz tibbiyot xizmatini isloh qilish va takomillashtirish borasida ustoz tomonidan keng ko'lamli ishlar olib borildi. Ayniqsa mamlakatda birlamchi tibbiy bo'g'inni – qishloq vrachlik punktlarini tashkil etish, ixtisoslashgan tibbiyot markazlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ixtisoslashgan bo'limlar, jumladan, qon tomir xirurgiyasi, shoshilinch qon tomir xirurgiyasi bo'limlarining faoliyatini rivojlantirish, kunduzgi stasionar va «bir kunlik xirurgik kun» bo'limlari tashkil etishdek ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, Shavkat Ibragimovich mamlakat Tennis Federatsiyasi raisi sifatida uning tashabbusi bilan respublika miqyosida ko'plab sport turnirlari tashkil etildi. Respublikada har yili o'tkaziladigan "Havas" turniri bunga yorqin misol bo'la oladi. Uning bevosita ishtirokida o'tkazilgan sport tadbirlari orqali aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga chaqirdi. Ayniqsa yosh bolalar o'rtasida uchraydigan ba'zi jismoniy nuqsonlarni bartaraf qilishning nafaqat tibbiy yo'l bilan, balki jismoniy tarbiya yo'li orqali bartaraf qilish mumkinligini ilgari surib, respublikada keng miqyosda sport bilan ommaviy shug'ullanish aholi o'rtasida muhim omil ekanligini targ'ib qildi.

Sh.Karimov 2004 yili dastlab 2-Toshkent Davlat tibbiyot instituti rektori lavozimiga, 2005 yil 19 iyulda uning bevosita ishtirokida 1- hamda 2-ToshDavTI negizida tashkil qilingan Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori lavozimiga tayinlanadi. Shavkat Ibragimovich Toshkent tibbiyot akademiyasini qariyb 12 yil davomida boshqarib keldi. Uning shaxsiy tashabbusi bilan Akademiyaning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilandi, yangi auditoriyalar, ma'ruza zallari, laboratoriyalar, sport inshootlari barpo qilindi, eski, zamon talabiga javob bermaydigan binolar buzilib, mavjud binolar qayta ta'mirdan chiqarildi. Ayniqsa talabalar turar joylarini qayta rekonstruksiya qilish ishlari natijasida ko'plab yangi o'rinlar barpo qilinib talabalarining aksariyat qismini talabalar turar-joylarida qamrab olishga erishildi. O'z navbatida talabalar turar-joylarida alohida kutubxona, o'quv zallari, kompyuter xonalari, ovqatlanish va dam olish xonalari tashkil etilib, talaba va magistrnlarning yaxshi bilim olishlariga keng sharoitlar yaratildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori faoliyati davomida talaba va xodimlarni qiynab kelayotgan muammolar Sh.Karimovning diqqat markazida bo'ldi. Uning bevosita talaba va xodimlar bilan yaqindan muloqot qilishi tufayli ko'plab yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf qilish imkonini tug'ildi. Talabalar bilim saviyasini oshirish, professor-o'qituvchilarning bilim-malakasini yangi bosqichga olib chiqish ishlari o'zining eng oliy maqsadi deb bildi. Bu yo'lda u barcha rejaralarini Akademiya Ilmiy Kengashi muhokamasi orqali amalga oshirdi. Ingliz tili savodxonligini oshirish nafaqat talaba va magistrnlr o'rtasida, balki xodimlar

o'rtasida muhim omil ekanligi, faqatgina shu yo'l bilan bilim saviyasini yangi zamon talabi darajasiga olib chiqish mumkinligini ta'kidladi. Erishilgan yutuqlar shuni ko'rsatdiki, talaba va magistrnlr o'rtasida xalqaro fan olimpiadalar g'oliblari paydo bo'ldi. Professor-o'qituvchilar orasida xalqaro anjumanlarning nafaqat "qatnashchi"lariga, balki faol ishtirokchilariga aylandi. Bundan tashqari, jahonning o'nlab nufuzli universitetlari bilan xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Polsha, Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya singari qator rivojlangan mamlakatlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatilib, ko'plab hamkorlik ishlari amalga oshirildi. O'rnatilgan hamkorlik aloqalari natijasida ko'plab professor-o'qituvchilar o'z malakalarini oshirib qaytdi, talabalar almashinuvi yo'lga qo'yildi, xorijiy professorlarning onlayn ma'ruzalari amalga oshirildi, qator nufuzli universitet professorlari tashrif buyurib o'z ma'ruzalari bilan talaba va magistrnlrimiz bilan yaqindan muloqotda bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yildagi qarori bilan Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgik angionevrologiya markazi tashkil etilib, uning direktori deb Sh.Karimov tayinlandi. Hozirgi kunga qadar akademik Sh.Karimov faoliyat yuritib kelmoqda. Uning bevosita sa'y-harakatlari bilan markazning moddiy-texnik bazasini yaratish va boyitish hamda yuqori malakali tibbiy yordamni kuchaytirish bo'yicha katta ishlar olib bordi va bu faoliyat davom etib kelmoqda. Respublikamizning qator viloyatlarida Markazning filiallari ochilib, o'nlab mutaxassislar bosh miya qon aylanishi yetishmovchiligi bilan bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatib kelmoqda. Shavkat Ibragimovichning bevosita o'zi ishtirokida yillik jadval asosida barcha viloyatlar ko'p tarmoqli shifoxonalar sharoitida tibbiy ko'riklar hamda jarrohlik amaliyotlari o'tkazilib borilmoqda. Hozirgi kunda markaz faoliyatni to'laqonli bajarib kelmoqda va 6000dan ziyod uyqu arteriyalarida rekonstruktiv amaliyotlari tajribasiga ega.

1993 yili ilm-fan, amaliy va pedagogik faoliyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi inobatga olinib Sh.Karimov O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan Fan arbobi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi etib saylandi.

Xalqaro maydonda jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi uchun 1996 yilda Sh.Karimov Amerika xalqaro fanlar akademiyasi faxriy akademigi unvoniga, shu yili xirurgiya fani taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Rossiya Fanlar akademiyasi N.I.Pirogov nomidagi mukofotiga sazovor bo'ldi.

Bundan tashqari, Shavkat Ibragimovich Butunjahon gastroenterologlar assotsiatsiyasi hamda Yevropa qon tomir xirurglari uyushmasi a'zosi hisoblanadi (1998).

Sh.Karimov 2000 yili Xalqaro gepatopankreatobiliar xirurgiya assotsiatsiyasi a'zoligiga saylandi. Shuningdek, shu yilning o'zida gepatologiya sohasida tibbiyot ilm-fan va xirurgiya amaliyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

xirurg-gepatologlar assotsiatsiyasi faxriy a'zosi sifatida e'tirof etildi.

Tinimsiz harakat, izlanishlar o'z samarasini berib keldi. Sh.Karimovning xirurgik faoliyatining munosib tan olinishi ifodasi sifatida uning 2001 yilda Rossiya Meditsina Fanlari Akademiyasi akademigi etib saylanishi hamda 2003 yilda A.V.Vishnevskiy nomidagi medal bilan taqdirlanishi misol bo'la oladi.

Yevropa Tabiiy Fanlar Akademiyasining N.I.Pirogov ordeni bilan esa 2006 yili uning tibbiyot sohasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun mukofotlangani ham so'zimiz isboti. 2012 yilda akademik Sh.Karimov Yevroosiyo angiolog va qon tomir xirurglari assotsiatsiyasi faxriy a'zosi etib saylandi.

Akademik Sh.Karimov – 800 dan ortiq ilmiy ishlanmalar muallifi hisoblanadi: 32 monografiya, 7 darslik, 45 metodik tavsiyalar shular jumlasidandir. Unga 80dan ziyod xirurgiyaning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha ixtiro uchun mualliflik guvohnomalari tegishli. Uning rahbarligida 27 tibbiyot fanlari doktori hamda 63 tibbiyot fanlari nomzodlari tayyorlandi.

Sh.Karimov ko'plab respublika va xalqaro ilmiy anjuman, simpoziumlar va kongresslar ishtirokchisi sifatida mamlakatimiz xirurgiya taraqqiyotida erishilgan yutuqlarni keng yoyib kelmoqda. Uning bevosita rahbarligida 30 dan ortiq turli xil mavqedagi ilmiy anjumanlar tashkil etilib, o'tkazib kelinmoqda.

U «Angiologiya i sosudistaya xirurgiya», «Annali xirurgicheskoy gepatologii», «Vestnik Tashkentskoy meditsinskoy akademii», «Meditsinskiy jurnal Uzbekistana», «Xirurgiya», «Xirurgiya Uzbekistana», «Vestnik ekstremnoy meditsinskoy pomoshi» kabi qator mahalliy va xorij ilmiy jurnallari tahrir hay'ati a'zosi sanaladi.

Bu yilning 21 iyun kuni ustoz Shavkat Ibragimovich Karimov 80 yoshni qarshi oladi. Tibbiyotimiz fidoyisi o'zining ushbu qutlug' yubileyini xirurgik bemorlarning diagnostikasi va davolashning yangicha usullarini doimiy izlanishlari ustida katta kuch zahirasi va ijodiy rejalari bilan qarshi olmoqda. Shavkat Ibragimovich hozirgi kunga qadar jarrohlik amaliyotlarini bajarishni yaxshi ko'radi va har kuni ko'p soatli rekonstruktiv amaliyotlarni muntazam bajarib kelmoqda. Ko'p sonli kasbdoshlari, ko'p minglab munnun bemorlari va minglab shogirdlari yuksak hurmati va e'tiboriga ega bo'lib kelmoqda.

Tibbiy ta'lim taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Sh.Karimovni akademiya ravnaqi uchun qilgan mehnatlari har doim yuksak qadrlanadi. Fursatdan foydalanib, aziz ustozimiz tabarruk yoshingiz bilan mazmunli va shijoatga boy hayotingizning 80 yilligi bilan chin qalbimizdan tabriklaymiz. Sizga kechirgan salmoqli yillardagi yorqin va baxtli xotiralarni, shuningdek, hozirgi hayotingizdagi shod va quvonchli daqiqalar hamda mustahkam sog'liq va barqaror farovonlik tilaymiz.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati,  
1-sonli fakultet va gospital xirurgiya  
kafedrası,  
Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgik  
angionevrologiya markazi**



## INTILGANGA TOLE YOR

“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur,  
zamon ilmi va fanidan bebahra millat  
boshqalarga poymol bo'lar”.

Behbudiy

### **Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda.**

Bugun dunyo tamadduni shunday bosqichga keldiki, zamonaviy bilim va intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlarsiz ko'zlangan marraga erishib bo'lmastligi ayon bo'lib qolmoqda. Shu bois, yoshlarning iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirish kun tartibidagi nihoyatda muhim masalaga aylangan desak, to'g'ri bo'ladi. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda o'g'il-qizlarga o'z imkoniyatlarini namoyish etishi uchun zarur imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Maqsadimiz O'zbekistonni yangi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot bosqichiga olib chiqishga qodir bo'lgan avlodni shakllantirishdir. Albatta, yoshlar iqtidorli, salohiyatli bo'lishi uchun ta'lim sifati har tomonlama talabga javob berishi kerak.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'quv yurtlarining, o'quv muassasasi, litsey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Respublikamizda har tomonlama rivojlanishni ko'zda tutgan holda “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” ishlab chiqilgan. Bu dastur o'z oldiga bugungi kun yoshlarini har tomonlama yetuk va barkamol yetishishini o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bugungi taraqqiyot talaba-yoshlardan yangicha fikrlashga, yangicha tafakkur qilishga, har tomonlama bilimdon va o'z fikriga ega bo'lishni talab etmoqda. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz bolalarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur. Kelajak bugundan boshlanadi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida ham talaba-yoshlarni zamon talabiga mos ravishda o'qitishga katta e'tibor berilmoqda. Talabalar o'zlari qiziqqan sohada turli to'garaklarga qatnashib, bilimlarini oshirmoqdalar. Fanlar bo'yicha tashkil qilingan to'garaklarga faol qatnashib, bilimlarini yanada oshirish bilan birga, turli ilmiy tajribalarni

o'tkazishni ham faol o'rganmoqdalar. Normal va patologik fiziologiya kafedrasida tashkil etilgan “Bilimdon patfiziolog” va “Yosh fiziolog” fan to'garaklari muntazam ravishda faoliyat olib bormoqda. Bu to'garaklarda TTA 1-3-bosqich talabalari soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ilmiy sohada ham dastlabki qadamlarini qo'yarmoqdalar. Toshkent tibbiyot akademiyasida har yili tashkil etiladigan talabalar ilmiy jamiyati konferensiyalarida muntazam qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallamoqdalar.

Bundan tashqari, talabalarimiz Xalqaro fan olimpiadalarida faol qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladilar.

2022 yilda Qozog'istonda o'tkazilgan Xalqaro olimpiadada patologik fiziologiya fanidan o'tkazilgan olimpiadada 1-davolash fakultetining 2- va 3-bosqich talabalari: J.Kamilov, L.Ikramova, S.Karimbayeva, R.Valiullin, D.Obidova qatnashib, II-o'rinni egalladilar. TTA miqyosida bir necha yildan beri o'tkazib kelinayotgan “FOLLOWERS OF AVICENNA” xalqaro fan olimpiadasida patologik fiziologiya fani bo'yicha 2023 yilda 1-davolash fakulteti talabasi S.Tirkashev III-o'rinni, fiziologiya fani bo'yicha S.Gaipnazarov faxrli I-o'rinni va P.Nizamova, Sh.Sobirjonova esa II-o'rinni egalladilar.

TTA talabalar ilmiy jamiyati konferensiyalarida kafedramizdagi to'garak a'zolari muntazam qatnashib, muvaffaqiyatli natijalarga erishmoqdalar. Jumladan, 1-davolash fakulteti 3-kurs talabasi J.Kamilov III-o'rinni egallab, fiziologiya fani bo'yicha L.Ibragimova II-o'rinni egallab, diplom bilan taqdirladilar.

Shuningdek, talabalarimiz Xalqaro talaba-yoshlar ishtirokida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda ham muntazam ravishda faol qatnashib keladi. Joriy yilda 1-davolash fakulteti talabalari – J.Kamilov, S.Karimbayeva, A.Yangiboyev, M.Tursunov, tibbiy pedagogika fakulteti talabasi F.Xasanov Qozog'iston, Irkutsk, Sankt-Peterburg shaharlarida xalqaro miqyosda o'tkazilgan Yosh olimlar va talabalar ilmiy konferensiyasida qatnashib, diplom va sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Biz bu talaba-yoshlarimizga keyingi ishlarida omad tilab qolamiz.

**Z.BOBOYEVA,**

**Normal va patologik fiziologiya kafedrasida dotsenti**





## G'OLIBLAR ANIQLANDI

Poytaxtimizda "Mirzo Ulug'bek vorislari" tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovning Respublika bosqichida Toshkent tibbiyot akademiyasining 4 nafar iqtidorli, innovator talabalari ishtirok etishdi.



### G'OLIBLAR

Marjona Qiyomova - Biotibbiyot muhandisligi yo'nalishi talabasi, loyiha nomi - "Ultratovush elastografiyasi biomexanikasi ishlash algoritmini sun'iy neyron tarmoqlari yordamida optimallashtirish".

Zebunniso Tursunova - 1-son Davolash fakulteti talabasi, loyiha nomi "Akkupressurali brasletlarni O'zbekistonda ishlab chiqarish".

Qadriiddin Sayfiddin Hoji - Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti talabasi, loyiha nomi - "Bolalarda biriktiruvchi to'qima displaziyatsini aniqlash va diagnostikasi".

"Faol ishtirokchi" - Alimardon Nishonov - Tibbiy biologiya yo'nalishi talabasi, loyiha nomi - "O'zbekiston XLOROHEALTH orqali xlorellaning tabiiy suspenziyalari va biobalanslar olish texnologiyasini ishlab chiqish va dunyo bozoriga chiqarish" loyihalari bilan muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Tanlov g'oliblari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Ulug'bek jamg'armasi tomonidan BHMning 20 barabari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

TTA Matbuot xizmati



## XALQARO KONFERENSIYA

Toshkent tibbiyot akademiyasi va Turkiyaning Istanbul Mediapol universiteti bilan hamkorlikda "Kattalar va bolalarda bo'g'im kasalliklarini zamonaviy davolash usullari"ga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.


Xalqaro tadbirni Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.Shadmanov kirish so'zi bilan ochib, mavzuga doir hamkorlik istiqbollari haqida gapirdi.

Anjumanga Turkiyaning yetakchi olimlaridan Istanbul Mediapol universiteti Travmatologiya va ortopediya kafedrasini mudiri, professor Ibrahim Azboyga Toshkent tibbiyot akademiyasi faxriy professori diplomini topshirildi.

Shuningdek, professor Mehmet Bulut ham o'z ma'ruzalari bilan qatnashdi.

Anjumanga xususan O'zbekiston, Italiya, Germaniya va Rossiya Federatsiyasidan travmatolog ortoped olimlar ma'ruza bilan ishtirok etdi.

Anjuman doirasida bemorlar ko'rikdan o'tkazilib, maslahatlar berildi.



## JSST BILAN HAMKORLIK YANADA RIVOJLANTIRILADI

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor A.Shadmanov Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Bosh direktori, doktor Tedros Gebreigus va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Yevropa mintaqaviy byurosi direktori, doktor Xans Klyugelar bilan uchrashib, muzokaralar o'tkazildi.

Uchrashuvda tibbiy ta'lim sifatini oshirishda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, muzokaralar doirasida aholiga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun tibbiyot xodimlarini tayyorlash yo'nalishida JSST bilan hamkorlikni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanishi bildirib o'tildi.



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil may)

No	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	Normal va patologik fiziologiya	assistent – 1,0
2.	Urologiya	assistent – 1,0
3.	Oftalmologiya	assistent – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	Psixiatriya va narkologiya	assistent – 1,0
2.	Oilaviy tibbiyotda akusherlik va ginekologiya	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Pedagogika, psixologiya va tillar	katta o'qituvchi – 1,0
2.	Ftiziatriya va pulmonologiya	assistent – 1,0
3.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklar	assistent – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	mudir – 1.0
2.	Epidemiologiya	mudir – 1.0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti</b>		
1.	Jamoat salomatligi va menejment	assistent – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
1.	Vrachlar malakasini oshirish	assistent – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.**

**Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Normal va patologik fiziologiya kafedrasida assistenti Musayev Hamid Alimardonovichning padari buzrukvori **Alimardon Musayev ELOMONOVICH**ning bevaqt olamdan o'tganligi munosabati bilan kafedra jamoasi marhumning oila a'zolariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi